
Buvayda tumanida aliment majburiyatini bajarmagan 4 nafar mas'uliyatsiz otalarga nisbatan sud qarori o'qildi.

Majburiy ijob byurosi Buvayda tuman bo'limi ish yurituviga bo'lgan aliment undirish bilan bog'liq ijob hujjati bo'yicha uzoq muddatdan buyon aliment qarzdorligini to'lashdan bo'yin tovlab kelayotgan qarzdorlarga nisbatan to'plangan hujjatlar MjtKning 47-4-moddasiga asosan Jinoyat ishlari bo'yicha Buvayda tumani sudiga taqdim qilindi Mazkur ma'muriy ish JIB Buvayda tuman sudida ko'rib chiqilib, qarzdorlar ya'ni G.G'oziyev 63,1 mln. so'm, E.Nazarov 3,8 mln. so'm, A.Dexqonov 36,3 mln. so'm, M.O'rionov 16,4 mln so'm miqdorida aliment pullarni to'lashdan bo'yin tovlab kelganligi sababli sud qarzdorlarning 3 nafariga 15 sutkalik ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi, 1 nafariga esa yetkazilgan zararni to'liq to'laganligi sababli MjtKning 271-moddasi 10-bandiga asosan ish yuritishdan tugatildi. Byuroning Buvayda tumani bo'limi!!!

2023-10-23 08:52:07